

YANICHARLAR TARIXI

Bekmurodov Shohruz Erkin o'g'li

Usmonov Islom Yunus o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1299-1922-yillarda hukm surgan Usmonli turk imperiyasida yevropalik qullardan tuzilgan piyoda qo'shin "Yanicharlar" faoliyati, ularning tashkil topishidan tarqatib yuborilgunga qadar bo'lgan faoliyati va Usmonli tarixidagi siyosiy jarayonlarga qanchalik ta'sir o'tkazganligi bir qancha tarixshunoslik ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Yeniçeri, O'rxon I, Lussen Keren, "Sultonning ulushi", bektoshi darvishlar,*

Har bir mamlakatning harbiy kuch tuzilmalarida jang olib boruvchi saralangan, ilg'or maxsus bo'linmalar mavjud. Ular jang maydonining eng qaynoq nuqtasida kurash olib boradi. Usmonli turk imperiyasida shunday kuch tuzulmasi – yanicharlar edi.

Yanichar so'zi lug'atda yeniçeri- yangi cherik, yangi qo'shin degan paydo degan ma'noni anglatadi.⁸⁰

XIV asrda Usmonli davlati endigina qad ko'tarayotgan yosh davlat edi. Davlat endigi galda harbiy sohada ham islohot o'tkazishga ehtiyoj seza boshladi. Chunki turklarning otliq qo'shini feodal tartibda tuzilgan bo'lib, ular sultonning chaqirig'i bilan bir tug' ostiga yig'ilar edi. Bundan tashqari, ilk tashkil etilgan turk piyoda qo'shinlari tartibsiz bo'lib, ular yollangan jangchilar bo'lgan.

O'rxon I davrida⁸¹ yangi yerlarni fath etish va nasroniylar qo'shinini yengish uchun tun-u kun jangga tayyor va eng muhimi unga sadoqatli piyoda bo'linmasini yaratish zarurari tug'ildi.

Fransuz tarixchisi Lussen Keren o'zining "Amir Temur saltanati" asarida Shahzoda Alouddin va Xalil Sendereli posho sultonga Islomni qabul qilgan yevropalik bandilar orasidan lashkar tuzish g'oyasini bergani yozib qoldirgan.⁸²

Usmonli imperiyasi Bolqon yarim orolini egallagach, bu yerdagi xalqlar (yunon, xorvat, serb, alban va chex)ga 5-14 yoshgacha bo'lgan har beshinchi o'g'il farzandni askarlikka berish majburiy qilib qo'yildi. Bu majburiyat – "sultonning ulushi" deb nomlangan.

Dastlabki davrda yanicharlardan quyidagilar talab etilgan:

- zodagon oilaning farzandi bo'lishi shart;
- islom diniga o'tkaziladi (bunda bektoshi darvishlar mazhabidagi imomlarni o'rni juda muhimdir)

⁸⁰ <https://daryo.uz/2023/10/23/nasroniylardan-tuzilgan-musulmon-qoshin-yanicharlar-nega-yoq-qilib-yuborilgan>

⁸¹ Usmonli beyligining ikkinchi hukmdori (1324-1362).

⁸² Keren Lucien. Amir Temur saltanati. "Zukko kitobxon" nashriyoti. T: 2022.

- turk tili o'rgatiladi;
- o'z zobitlari va sulton amiriga so'zsiz bo'ysunish;
- oila qurmaslik (ammo yillar o'tib, yanicharlarga ham oila qurish va savdo-sotiq bilan shug'ullanishga ruxsat beriladi)
- hazrat Bektoshi yo'lini tutishlari hamda Islom dinining barcha aqida va qoidalariga rioya qilish.

Yanicharlar Usmonli qo'shinida g'alabalarning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qildi.Ularni jangga kirishi vaziyatni butunlay o'zgartirib yuborar edi.

1453-yil Konstantinopol fath etilishida ham yanicharlarni o'rni katta.

Yanicharlar Yevropaning birinchi zamonaviy doimiy armiyasi hisoblanadi.⁸³

Yillar o'tib yanicharlar oila qurish, savdo-sotiq qilish huquqiga ega bo'ldi. Bu esa ularni siyosiy lashishiga sabab bo'ldi deyish mumkin. Ya'ni endi ular faqatgina Sulton xizmatkorlari emas, mamlakat ichidagi bir subyekt o'laroq ta'sir o'tkaza olish qobiliyatiga ega bo'la boshladi. Yanicharlar hokimiyatga qarshi isyonlar o'tkaza boshladi. Ilk isyon 1446-yil Edirne'da sodir bo'lgan Buchuktepa qo'zg'olonidir. Bu qo'zg'olonda yanicharlar taxtga o'tkazilgan yangi sulton Mehmed II ni taxtdan tushirilishini talab etishgan. Va alaloqibat, Mehmed II taxtdan tushirilib, uning otasi Murod II⁸⁴ taxtga o'tirishga majbur bo'lgan. Yanicharlarning oylik maoshi ham ko'tarilgan.⁸⁵

Shu voqeadan boshlab yanicharlar turli sabablarga qo'zg'olonlarda qatnashdilar. 18—19-asrlarda ular sultonlar va vazirlar hokimiyatdan ag'darishda bevosita ishtirok etdilar.

Bu esa G'arb davlatlari bilan yaxshi munosabatda bo'lgan yangi sulton Mahmud II ga yoqmasdi. Uning davrida Nizom-i Cedid va Sekban-i Cedid kabi harbiy uyushmalar tashkil etildi. Yanicharlar odatdagidek, bunga qarshi chiqdi. Mo'minlar amiri Sulton Mahmudxon Soniy yanicharlar bo'linmasini butunlay tarqatib yuborishga qaror berdi. Bu voqea 1826-yil 17-iyun Sulton Ahmad masjidida sodir bo'ldi. Yanicharlar o'rnida "Asokir-i Mansure-i Muhammediyye" nomli yangi harbiy bo'linma tuzildi.⁸⁶

Ahmet Mithatning "Letaif-i Rivoyat" hikoyalar turkumiga mansub fojiali va tarixiy hikoya. Muallif o'z hikoyasining bir qismini o'sha davr tarixchilaridan Mustafon Najib afandining "Vak'a-, Selimiyye" nomli tarixiy kitobidan jamlab, yanicharlik muassasasini hikoya qilishga bag'ishlagan.⁸⁷ Bu hikoyada yanicharlik muassasasi chirish arafasida turgan muassasa sifatida, yanicharlar esa isyonkor, mustaqil odamlar sifatida tasvirlangan.

Bu hikoya o'quvchilar uchun Yanicharlar faoliyatini batafsil tushunishda foyda beradi.

Xulosa

⁸³ Goodwin, Jason (1998). Lords of the Horizons . New York: H. Holt. ss. 59, 179-181. ISBN 0-8050-4081-1.

⁸⁴ M. Chagatay Uluchay (1992). Padishahlarning Kadinlari va Qizlari . Anqara : Turk Tarix Kurumu Basymevi. 27-bet

⁸⁵ Osmanli'da ilk Askeri Ayaklanma Buçuktepe Vak'asi". Şehir ve İrfan Araştırmaları Dergisi, 2. DergiPark. 2016. ss.

62-65

⁸⁶ Uzuncharshili, Ismoil Hakki (1988). Usmonli davlat tashkilotidan Kapukulu Ocaklari - I (3-nashr). Anqara: Turk Tarix Jamiyati .

⁸⁷ <https://www.hepsiburada.com/peniceriler-pm-kantik81>

Yanicharlar (Yangi Cheriklar) Usmonli imperiyasining elita harbiy qismi bo'lib, 14-asrda sulton Murad I tomonidan tashkil etilgan. Yanicharlar janglarda o'zlarining sadoqati va jasorati bilan mashhur bo'lib, imperiyaning kengayishida muhim rol o'ynagan. Biroq, vaqt o'tishi bilan ularning siyosiy ta'siri kuchayib, ichki muammolarga sabab bo'ldi. 1826-yilda sulton Mahmud II tomonidan yanicharlar isyoni bostirilib, bu elita qo'shinlar tarqatib yuborildi. Shu tariqa, yanicharlar Usmonli imperiyasining tarixida muhim iz qoldirib, o'z faoliyatini yakunladi. Shu tarzda Usmonli turk imperiyasini yuksalishi va zaiflashuviga katta hissa qo'shgan yanicharlar yo'q qilindi. Ammo bu "Yevropaning kasal odami" deb nomlangan Usmonli turk imperiyasining hayotini saqlab qola olmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Keren Lucien. Amir Temur saltanati. "Zukko kitobxon" nashriyoti. T: 2022.
- 2.Goodwin, Jason . Lords of the Horizons . New York-1998
- 3.M. Chagatay Uluchay (1992). Padishahlarning Kadınları va Qızları . Anqara-1992
4. Osmanlı'da İlk Askeri Ayaklanma Buçuktepe Vak'ası". Şehir ve İrfan Araştırmaları Dergisi, 2. DergiPark. 2016
5. Uzuncharshili, Ismoil Hakki (1988). Usmonli davlat tashkilotidan Kapukulu Ocaklari - I (3-nashr). Anqara: Turk Tarix Jamiyati .
- 6.<https://daryo.uz/2023/10/23/nasroniylardan-tuzilgan-musulmon-qoshin-yanicharlar-nega-yoq-qilib-yuborilgan>
- 7.<https://www.hepsiburada.com/yeniceriler-pm-kantik81>